

# O`SMIRLAR XULQIDA SALBIY O`ZGARISHLARNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Raxmonov Abdumalik O`lmas o`g`li**  
**Jizzax davlat pedagogika universiteti, magistr**

**Annotatsiya:**Maqolada o`smirlar xulqida psixologik o`zgarishlarning ijtimoiy jihatlari ochib berilib, o`smir o`quvchilarni ta`lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va hususiyatlarini ba`zan etarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi.

**Kalit so`zlar:** O`smir, ta`lim va tarbiya, qiyinchiliklar, psixik rivojlanish, inkor qilish.

**Аннотация:** В статье раскрываются социальные аспекты психологических изменений в поведении подростков, а также некоторые трудности, возникающие при воспитании и обучении школьников-подростков, вызванные недостаточным знанием или отрицанием особенностей психического развития и особенностей детей этого возраста.

**Ключевые слова:** Подросток, воспитание и обучение, трудности, психическое развитие, отрицание.

O`qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning o`smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazaridan ham pedagogik nuqtai nazaridan ham muximdir. Bu davrni biz yana o`tish davri ham deb ataymiz. O`smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o`z ichiga qamrab oladi, ya`ni 5-8 sinf o`quvchilarini.

O`smir o`quvchilarni ta`lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va hususiyatlarini ba`zan etarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi.

Kichik va katta yoshdagi maktab o`quvchilariga qaraganda o`smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko`p qiyinchiliklar bo`ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda kiyin kechadi. Bu jarayon o`smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo`lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o`zgarishi, hamda hayot sharoitining o`zgarishi bilan bog`liqdir.

Bu davrda o`smirlarning o`z shaxsiy fikrlari paydo bo`ladi. Ularda o`z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo`yicha o`smirlarningpsixik taraqqiyotini xarakterga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug`iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari o`rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir.

Bu davrda yurak qon tomirlari sitsemasining taraqqiyotida mos kelmaslik hodisasi kuchlaniladi.Bu paytda yurak xajmi jihatidan ancha kattalashadi,ancho kuchli ishlay boshlaydi.Ko`pincha qon aylanishining vaqtincha bo`zilishida qok bosimining yoshga bog`liq xolda ko`tarilishiga,yurak faoliyatining zo`r berilishiga olib keladi.Natijada o`smirlarda uchraydigan bosh aylanishi,yurak urishi,bosh og`rig`i paydo bo`ladi.

O`smirlarning yoshi ham jismoniy psixik hususiyatga egadir, organizm Pavlov ta`limotiga ko`ra, bir butun sitsemadan iborat bo`lib, bunda barcha to`qimalar va organlar fiziologik jarayonlar uzviy ravishda bir-biri bilan bog`langan bo`ladi.

Lekin bir butunlikda nerv sitemasi va uning bilan bog`langan yuqori qismi I.P.Pavlov so`zi bilan aytganda organizmda sodir bo`ladigan barcha hodisalarni boshqarib turuvchi bosh miya po`tsi asosiy etakchi rolni o`ynaydi. O`smirlik yoshida nerv sitsemasining yuqori qismi sifat jihatidan o`sa boshlaydi va miya ichki to`zilishining murakkablashishga o`tadi.

Katta yarim sharda nerv xujayralarning etishi tugallanadi. O`smir organizmining jismoniy taraqqiyoti uning organlari va to`qimalarining rivojlanishi bosh miya po`tsining boshqaruvchanlik roli otsida amalga oshadi, ammo o`sib borayotgan to`qimalar va organlar o`z navbatida nerv sitsemasining o`shishiga ta`sir ko`rsatadi. O`smirlik yoshida o`pkaning xajmi kattalashadi nafas olish ancha miqdorda tezlashgan va sayoz bladi. O`smirlik yoshida bola qancha toza havoda yursa shuncha foydalidir.

Bu davrda ichki sekretiya bezlarining qayta qurishiga bog`liq bo`lgan jinsiy etilish davridir. Bu bezlarning etilishi kishi organizm faoliyatida xizmati juda kattadir. O`smirlik yoshining xarakterli xususiyatlaridan biri jinsiy etilish jarayonidir.

Jinsiy etilishning boshlanishi ko`p jihatdan iqlimga va milliy epiografik omillarga va shuning bilan birga individual xususiyatlarga bog`liqdir.

O`smir o`quvchilarda tabiat, san`at, adabiyot, madaniyat, ijtimoiy hayot go`zalliklarini payqash, idrok qilish, sevish, ulardan ta`sirlanish, ma`naviy ozuqa olish xislatlari paydo bo`ladi. Ularning psixologiyasida mayin sado, yo`qimli nido, qalbni to`lqinlantiradigan musiqa, nozik his-tuyg`u, ezgulik xislari, mayllari kuchayadi. Ayniqsa, etsetik xislar ularning ma`naviyatidagi qo`pol, noxush, xunuk va yo`imsiz qiliqlarning yo`qolishiga yordam beradi. Shunga qaramay o`spirin yigit va qizlar orasida etsetik tuyg`usi to`la shakllanmagan, noto`g`ri tasavvurga ega bo`lgan shaxslar ham uchraydi.

O`smir o`quvchilarning fanlarga munosabatlari asosan har qaysi fanning inson dunyoqarashidagi roliga, bilish faoliyatidagi va ijtimoiy ahamiyatiga, amaliy xususiyatiga, o`zlashtirish imkoniyatiga va uni o`qitish metodikasiga bog`lik bo`ladi.

O`smirlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik takomillashib boradi, mantiqiy xotira, eslab qolishning yo`l va vositalari ta`lim jarayonida etakchi rol o`ynay boshlaydi. O`spirinlar topshiriqlarni bajarishda, ularning ma`nosi hamda mohiyatini to`la anglab ish tutadilar, eslab qolish, saqlash, esga tushirish jarayonlarining samarali usullaridan unumli foydalanadilar.

O`smir barcha faoliyat bosqichida mustaqil fikr yurita olmasligi uning psixikasidagi jiddiy kamchilikdir. Bu kamchilikni bartaraf qilishda dars jarayoni katta imkoniyatlarga ega. Darsda o`quv materialini bayon qilishda mazmuni ixcham, mantiqiy boglangan bo`lishini ta`minlash, o`quvchining javobi albatta kitobdagiday, yodlab olingan qoidalardan iborat bo`lib qolmay, uning «o`z so`zi bilan» izoxlanishini talab qilinishi kerak. Tinglangan yoki o`qilgan materialda

mustaqil xulosa chiqarishni talab qiladigan xolatlar bulishiga aloxida e'tibor berilishi kerak.

Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarda nazariy tafakkurni shakllantirishda to'g'arak va fakultativ mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega. O'spirin o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun o'qituvchilar, sinf raxbarlarining siymolari muxim rol o'ynaydi. Buning uchun birinchidan, o'qituvchilar o'spirinlarda o'rganilayotgan narsa va hodisalarning ob'ektivligi, haqqoniyligi, to'g'riligiga ishonch xosil qilishlari, ulardan qanoatlanishlari va ularni isbotlashga o'rgatib borishlari zarur. Ikkinchidan, fan o'qituvchilari ularni narsa hodisalar to'g'risida original fikr yuritishga yo'llashlari kerak. Uchinchidan, o'quvchilarning mashg'ulotlarda qo'llanaverib ma'naviy eskirgan bir qolipdagi so'zlardan, iboralardan foydalanishlariga yo'l qo'ymasliklari kerak. To'rtinchidan, fan o'qituvchilari o'spirin yigit va qizlarga bilimlarini amaliyotga tadbiiq qilishlari shart, buning uchun ularda amaliy malakalarni shakllantirishga harakat qilishlari lozim.

#### **Adabiyotlar:**

1. Амбрумова А.Г., Тихоненко В.А. Диагностика суицидального поведения. // -М.: Минздрав, 1990. -106 с.
2. Амбрумова А.Г. Психология самоубийства. // Социальная и клиническая психиатрия. Москва, 1996. Т.6.-вып.4.14-20 с.
3. Дюркгейм Э. Самоубийство. // СПб.: «Союз», 1998.-496 с.
4. Кондрашенко В.Т. Девиантное поведение у подростков: Социально-психологические и психиатрические аспекты. // Минск, 1988.-202 с.
5. Кондрашенко В.Т. Суицидальное поведение. // Психология экстремальных ситуаций: Хрестоматия. // Сост. Тарас А.Е., Сельченко К.В. -Минск, Харвест, 1999.
6. Каршибаева Г.А. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением //EurasianUnionScientists. / 2020. Т. №. 10 (79). С. 48-49.
7. Каршибоева Г. А. Эмоциональные аспекты при суицидальной поведении подростка //EDITOR COORDINATOR.2021. С. 304.
8. Каршибаева Г. А. Факторы и причины суицида //Scientific Impulse. 2022. Т. 1. №. 2. С. 651-656.
9. Каршибоева Г. А. Психопрофилактические меры по предупреждению суицидного поведения у подростков//Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. 2021.№. 2-Махсус сон. С. 298-305.
10. Каршибоева Г. А. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением//Евразийский Союз Ученых. 2020. №.10-1 (79). С. 48-49.
11. Каршибаева Г. А. Аспекты социально психологического исследования суицидального поведения подростков //Мир образования-образование в мире. 2021. №. 1.С. 50-56.
12. Abduqodirovna G. Q., Burxonovich A. S., O'skanov M. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager //International

Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. 2021. Т. 1. №. 7.С. 54-59.

13. Karshibayeva G. Диагностика суицидального поведения у подростков //Вестник интегративной психологии. 2021. №. 22. С. 84-89.

14. Каршибаева Г. А. Причины суицида и факторы риска //Психология интегральной индивидуальности в информационном обществе. 2021. С. 90-96.

15. Karshibayeva, G Diagnosis of suicidal behavior in adolescents. International Journal for Innovative Engineering and Management Research. A Peer Reviewed Open Access International Journal.// Vol 10 Issue03, March 2021 501-505 p.

16. Karshibayeva, G. The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2)

17. Karshibayeva, G. Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021

18. Karshibayeva, G. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021

19. Каршибаева Г.А., Валиева Ч. Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». Выпуск №25 (том 4) (апрель, 2022). Дата выхода в свет: 30.04.2022.

20. Каршибаева Г. А. Ўсмирларда суицидал хулқнинг олдини олишда амалга оширила-диган психопрофилактик чора-тадбирлари. “Таълим ва инновацион тадқиқотлар” илмий услубий журнал, 2021 йил, махсус сон. 298-305 ст.

21. Каршибаева Г. А., Ибайдуллаева У.Р. Оила психологияси. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент – 2022 й.

22. Каршибаева Г. А., Абдурасулов Р.А. Психологик маслаҳат. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент – 2022 й.

23. Каршибаева Г. А. Ўсмирларда суицидал хулқни пайдо бўлишида ижтимоий функциялар бузилишининг психологик ҳолатлари. Psixologiya ilmiy jurnali/ Вухоро. №4, 2020. 101-104 бб.

24. Ибайдуллаева, У., & Абдурасулов, Р. (2021). Низолашув даражасини ўсмирларнинг характер хусусиятларига таъсири. *Общество и инновации*, 2(10/S), 499-505.

25. Ибайдуллаева, У. Р. Ўсмирлар ўртасидаги низолар ва уларни бартараф этиш. *Профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг I илмий-амалий конференцияси, МИРЗО УЛУГ ‘БЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ЖИЗЗАХ ФИЛИАЛИ//2020/5//37-39б.*

26. Ibaydullayeva, U. (2022). DIQQATNI JAMLASH QOBILIYATINING PASAYISHI VA BUZILGAN KONSENTRATSIYANING OLDINI OLISHDA PSIXOLOGIK YORDAM BERISH USULLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6)

27. Ibaydullayeva, U., & Mamatqulova, Y. (2022). ЎСМИРЛАР ЎРТАСИДАГИ ЗИДДИЯТЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6).
28. Ibaydullayeva, U. (2021). СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ТРУДНО ВОСПИТУЕМЫХ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2).
29. Абдурасулов, Р. А., & Ибайдуллаева, У. Р. The influence of motivation on the formation of personality traits. *Journal of Physical Education and Sport (JPES)*.